Kalit so'zlar: texnikaviy tavsiflar, statik noaniqlik, dinamik noaniqlik, datchiklarining nohiziqiligi, kvantlash noaniqligi, analogli-raqamli, operatorning noaniqliklari.

ANALYZES FOR DETERMINING THE UNCERTAINTY OF MEASURING TOOLS IN MEASURING CONDITIONS

Qudratov Javohir Bahodir o'g'li

Navoi State University of mining and technology,
Galaba 27, Navoiy, Uzbekistan

Abstract: In this article, definitions of uncertainty and some solutions are presented that every specialist needs to know about the parameters and their measurement methods, measuring tools, and their technical descriptions. In addition, the information about the uncertainty about the issues related to the control of quantities measured and evaluated by technical experts and their use was analyzed.

Keywords: technical specifications, static uncertainty, dynamic uncertainty, sensor nonlinearity, quantization uncertainty, analog-digital, operator uncertainties.

KIRISH

Ma'lumki, respublikamizda tub iqtisodiy islohotlar orqali bozor munosabatlarini shakllantirishga kirishishda eng avvalo, uning strategik maqsadlari belgilanib olindi. Bu maqsadlar ichida "raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlash" alohida ta'kidlab o'tilgan. Iqtisodiy islohotlarning ustivor sanalgan yo'nalishlarida ham quyidagilarni ko'rishimiz mumkin:

- ilg'or texnologiyalarni joriy qilish orqali tayyor ekspertbob mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;
- aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash;
- mamlakatning eksport quvvatidan to'la-to'kis foydalanish, uni jadallik bilan rivojlantirish.

Bu borada respublikamizda qisqa muddat ichida ulkan ishlar amalga oshirildi va natijada O'zbekistonga faqat xomashyo zonasi sifatida qarashlarga barham berildi. Hozirgi kunda har bir mutaxassis o'z faoliyat sohasidagi parametrlarni va ularni o'lchash usullarini, o'lchash vositalarini, ularning texnikaviy tavsiflarini bilishlari zarur [1]. Bundan tashqari texnika yo'nalishidagi mutaxassislar o'lchanadigan va baholanadigan kattaliklarni nazorat qilish vositalari hamda ularni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan masalalarni bilmog'i zarur.

Ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri kattaliklarni yanada aniqroq o'lchaydigan mukammal nazorat-o'lchash asboblarini, qurilmalarini va tizimlarini yaratishdir.

Noaniqlik masalasini o'rganish metrologiya bo'yicha o'lchash usullari va vositalari hamda ularning metrologik tavsiflarini, o'lchash xatoliklari va ularni baholash kabi masalalarni bilishini taqozo etadi.

Bu esa bugungi kunda, ayniqsa, jahon andozalariga mos keluvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va ularning raqobatbardoshligini ta'minlashda, eng muhimi respublikamizning iqtisodiy salohiyatini oshirishda o'ta muhim masalalardan biri sanaladi.

Asbobiy noaniqliklar

Asbobiy noaniqliklar - o'lchash vositalarining takomillashmaganligiga bog'liq bo'lgan noaniqliklardir. Bunday noaniqliklarga, masalan, analitik tarozilarning aniqlik chegaralari; qayd qilinadigan temperaturadan farqlanuvchi o'rtacha temperaturani ta'minlovchi temperatura rostlagichining mavjudligi; ortiqcha yuklama effektiga uchrashi mumkin bo'lgan avtomatik analizator; o'lchash vositalarining ishlash prinsipiga kirgan noaniqliklar; o'lchash vositasini tayyorlash texnologiyasi yoki konstruksiyasidagi kamchilikka bog'liq bo'lgan noaniqliklar va h.k. kirishi mumkin.

O'lchash vositalarining ishlash prinsipiga kirgan noaniqliklar. Bu noaniqliklar, o'lchash vositasidan foydalanish tartibiga qarab, statik va dinamik noaniqliklarga ajraladi. Statik noaniqlik - o'lchash vaqti davomida o'lchami o'zgarmas deb hisoblangan kattalikni o'lchash noaniqligidir [2]. Dinamik noaniqlik – o'lchanayotgan kattalikning o'lchami o'zgarib, deb bo'lmaydigan dinamik o'lchashlar vaqtida statik noaniqlikka qo'shimcha ravishda paydo bo'ladigan o'lchashlar noaniqligining tashkil etuvchisidir. Dinamik noaniqlik ikki omilga: o'lchash vositasining dinamik xossalari va o'lchanadigan kattalikning vaqt ichida o'zgarish xarakteriga qarab aniqlanadi [1].

Bu turdagi statik noaniqlikka o'lchash vositasi almashtirish funksiyasining noxizirligiga bog'liq bo'lgan noaniqlik misol bo'la oladi. Masalan, Guk qonunining keng oraliqda noxizirliligi, temperaturani o'lchashda temperatura datchiklarining noxizirliligi, o'zgaruvchan tok voltmetrlarining chastotaviy noaniqliklari tufayli statik noaniqliklar kelib chiqadi. Dinamik noaniqliklarga o'lchash vositalarining inersion xossalari (temperaturani ulchashda termometrning inersionligi, tez o'zgaruvchi tezliklarni aniqlashda spidometrning inersionlik xossalari va h.k.) ga bog'liq bo'lgan noaniqliklar misol bo'la oladi [2].

Kvantlash jarayonida uzluksiz o'zgaruvchi X kattalikni, pog'onalarining q o'lchamlari berilgan pog'onali o'zgaruvchi $X_N = N_q$ kattalikka o'lchovli almashtirish sodir bo'ladi. Bunda X kattalikning mumkin bo'lgan qiymatlarining cheksiz

to'plamiga mumkin bo'lgan ko'rsatuvlarning yoki raqamli qurilmaning chiqish kodlarining chekli va hisobli N to'plami mos keltiriladi.

Kvantlash, ya'ni o'lchovli almashtirish, o'lchami uzluksiz o'zgaruvchi X kattalikning razryad sonlari cheklangan son N bilan almashtirishda paydo bo'ladigan xatolikka ega. Kvantlash xatoligi, agar o'lchov va komparatorning xatoligi nolga teng bo'lsa, o'lchash natijasi bilan X kattalikning haqiqiy qiymati o'rtasidagi farqqa teng:


$$\Delta_k \approx X_N - X \quad (1)$$

Demak, (1) ga binoan, kvantlash Δ_k xatoligining o'lchanadigan X kattalikka bog'liqligi kvantlash q qadami chegaralarida chiziqli bo'ladi [2].

Raqamli o'lchash vositalarida ikkita X_N va X_{N+1} , kvantlash darajalarida joylashgan, o'lchanadigan X kattalik, odatda, quyi raqamli qiymat bilan ifodalanadi. Bu holda kvantlash xatoligi Δ_k doim manfiy bo'ladi, uning maksimal qiymati esa kvantlash qadami q ga teng bo'ladi.

O'lchash vositasining tayyorlash texnologiyasi yoki konstruksiyasidagi kamchilikka bog'liq bo'lgan noaniqliklar.

1-rasmda, masalan, sekundomerdagi aylanuvchi qismlarning eksentrikligi sababli sodir bo'ladigan Δ_s xatolik ko'rib chiqilgan (1-rasm). Bu xatolik $\Delta\varphi = e \cdot \cos\varphi$ sinusoidal qonun bo'yicha davriy o'zgaradi.



1-rasm. Sekundomerdagi aylanuvchi qismlar sxema

e – milning shkala markaziga nisbatan siljishi (eksentrisitet);

φ – milning burilish burchagi

O'lchash sharoitlarining noaniqliklari

Ko'rilayotgan noaniqlikka temperatura, namlik, bosim, binoning tozaligi, magnit va gravitatsion maydonlar, titrashlar, turli nurlanishlar, yorug'lik va h.k. larni o'lchash va tutib turish noaniqliklari kiradi.

Masalan, o'lchov shisha idishi o'zi kalibrlangan temperaturadan farqlanuvchi temperaturada qo'llanilishi mumkin. Katta temperaturalar tuzatmalar kiritib hisobga olinishi lozim, ammo bunday holda suyuqlik va shisha temperaturalarining qiymatlaridagi har qanday noaniqlikni ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Huddi shunday, agar atrof muhit namligini o'lchashda qo'llaniladigan materiallar namlikning o'zgarishiga sezgir bo'lsa, atrof muhit namligining qiymati ham ahamiyatga ega bo'lishi mumkin [3].

O'lchash vositalarining noaniqliklariga noaniq kalibrlash, ko'rsatuvlarning variatsiyalanishi, oxirgi qiyoslash va kalibrlashdan keyin o'tgan vaqt, o'lchash vositasining sezgirlik chegarasi yoki chekka ajrata olish qobiliyati va h.k. ga bog'liq bo'lgan noaniqliklar ham kiradi.

Namuna yoki aniqlanadigan komponentning barqarorligi, issiqlik rejimining o'zgarishi yoki boshqa effekt tufayli, taxlil vaqtida o'zgarishi mumkin [2, 3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Рахматов Д.И., Саидова А.Х., Мохилова Н.Т., Тухтамишова М.Ш. Автоматизация технологических процессов и производств // Интернаука: электрон. научн. журн. 2022. – №. 18-5. – С. 23-25. <https://internauka.org/journal/science/internauka/241>
7. Рахматов Д.И., Абдужабборовва Д.А. Разработка методики калибровки средств измерений //Студенческий вестник. – 2021. – №. 3-5. – С. 47-49. <https://elibrary.ru/item.asp?id=44681682>
8. Kabulov, A., Kalandarov, I., Raxmatov, D., & Namozov, N. (2023). Control system and algorithm for construction of optimal technological routes for machining parts in the machining shop https://doi.org/10.1007/978-3-031-21219-2_288

AMIR TIMUR: THE CONQUEROR AND PATRON OF ARTS.

Karimboyeva Dilobar To‘rayevna

Vocational school of Shaikhontohur district

History teacher

Abstract: Overall, Amir Temur remains a significant figure in world history, with his reign and empire leaving a lasting mark on the regions he conquered and the legacy of his accomplishments still studied and debated by historians. Amir Temur is a historical figure who has a great place in world history. After achieving independence, as a result of the tremendous work to restore historical justice and national pride of our people, a rich historical heritage and names of many great ancestors were revived. A special place in their row is occupied by the symbol of courage, courage and wisdom, national pride of our people Sahibkiran Amir Temur.

Key words: Central Asia, Early Life and Rise to Power, Conquests and Empire Building, Administration and Governance, Cultural and Intellectual Patronage, Legacy and Impact, Conclusion.

Introduction:

Amir Temur, also known as Tamerlane or Timur Lang, was a prominent figure in Central Asia during the 14th century. He was the founder and ruler of the Timurid Empire, which encompassed vast territories and played a significant role in shaping the region's history. This article explores the life, achievements, and legacy of Amir Temur.

Main Part:

Early Life and Rise to Power:

Amir Temur was born in 1336 into a noble family in Transoxiana (present-day Uzbekistan). He grew up in a turbulent period, witnessing the disintegration of the

Mongol Empire. Taking advantage of the power vacuum, Temur embarked on a military and political career, gradually consolidating his authority and gaining support from various factions.

Conquests and Empire Building:

Amir Temur's military campaigns were characterized by their scale and brutality. He embarked on numerous conquests, expanding his empire across Central Asia, Persia, and parts of the Middle East. His military strategies and tactics were highly effective, often overwhelming larger and more organized armies. His empire stretched from Anatolia to Delhi, encompassing diverse cultures and populations.

Administration and Governance:

Despite his reputation as a conqueror, Amir Temur demonstrated a keen interest in governance and administration. He established a centralized government, implementing reforms and policies aimed at maintaining order and promoting economic prosperity. Temur's capital, Samarkand, became a center of art, science, and intellectual pursuits, attracting scholars and artists from different regions.

Cultural and Intellectual Patronage:

Amir Temur's court became renowned for its patronage of art, architecture, and scholarship. He supported the construction of magnificent architectural structures, including the Bibi-Khanym Mosque and the Gur-e Amir mausoleum in Samarkand. Temur also encouraged learning and intellectual pursuits, establishing educational institutions and inviting renowned scholars to his court, such as the astronomer Ulugbek.

Legacy and Impact:

Amir Temur left a lasting impact on the territories he conquered and the regions he ruled. His empire fostered cultural exchange, trade, and the transfer of knowledge between East and West. However, his legacy is not without controversy. Critics point to the immense human suffering caused by his conquests and the devastation of conquered cities.

Conclusion:

Amir Temur, the formidable conqueror and statesman, left an indelible mark on the history of Central Asia. His military successes, administrative reforms, and patronage of art and scholarship continue to shape the region's cultural and architectural heritage. While his legacy is complex, there is no denying his significant contributions to the political and cultural landscape of his time.

Please note that this is just a brief overview, and there are many more aspects and details that can be explored in an in-depth article about Amir Temur.

However, Amir Timur was not only a military conqueror but also a patron of arts and culture. He established Samarkand as his capital and transformed it into a magnificent center of learning and artistic achievement. Under his patronage, the city flourished, attracting scholars, poets, artists, and architects from across the empire and beyond. Timur's court became a vibrant hub of intellectual and cultural exchange, fostering the development of literature, architecture, calligraphy, and the sciences.

One of the most notable architectural achievements of Amir Timur's reign was the Registan Square in Samarkand, a breathtaking complex of madrasas (Islamic educational institutions). These grand structures, adorned with intricate tilework and majestic domes, showcased the empire's architectural prowess and served as centers of learning for generations to come.

Despite his military conquests and imperial ambitions, Amir Timur also engaged in diplomacy, establishing alliances and maintaining diplomatic ties with neighboring states and even European powers. His astute understanding of geopolitical dynamics allowed him to navigate complex relationships and secure his empire's stability.

Amir Timur's reign came to an end with his death in 1405, leaving a mixed legacy. While he was undoubtedly a formidable conqueror, his empire did not endure beyond his immediate successors. Nevertheless, his cultural and artistic patronage

had a lasting impact. The Timurid dynasty left an artistic and intellectual legacy that influenced the subsequent development of Central Asian and Islamic civilizations.

Amir Timur's life and achievements continue to captivate historians, scholars, and enthusiasts alike. His military strategies, cultural patronage, and enduring influence on the arts make him an intriguing and complex figure in world history. As we delve deeper into the legacy of Amir Timur, we gain a deeper understanding of the complexities of power, conquest, and cultural exchange in the medieval world.

List of References

- 1) Axmedov B. Soxibkiran Timur. - T., 1996..
- 2) Muminov I. The role of Amira Timura in the history of Sredney Azii. - T., 1968. – S.3-15.
- 3) Tamerlan. Epoxa. Personality. Deyaniya. –M., 1992.
- 4) Laying Timura. - T., 1999. 5) Xukxem X. Vlastitel semi sozvezdiy. - T., 1995.

QOP ISHLAB CHIQRISH KORXONASINI AVTOMATLASHTIRISH

Bohodirov Dilshod Nodirbek o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali talabasi

bohodirovdilshod3@gmail.com

Yusupova Janar Kamolovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali asistenti

yusupovajanar1992@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada qop ishlab chiqarish korxonasini avtomatlashtirish uchun zarur bo'lgan qurulma va texnik vositalash bilan tanishish, ishlash prinsplarini o'rganish yoritib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Avtomat, Blok-sxema, TK-3/900CP, TK-4/800H, Ekstruder.*

Har qanday mahsulotlar bugungi kunda qadoqlanib sotilmoqda. Shu sababdan polipropilen qoplar qurilish mollari, un mahsulotlari, shakar mahsulotlari va hattoki poliz mahsulotlari uchun ham ajoyib qadoq mahsuloti bo'lib xizmat qilmoqda[1].

Qop ishlab chiqarishni tayyor mahsulot shakliga keltirish uchun xomashyodan boshlab tayyor qop shakliga kelguniga qadar bosqichlarga bo'lamiz:

1. Ishlab chiqarishni boshlash avvalo Mikserda mahsulotlarni aralashtirishdan boshlanadi. Asosiy xomashyo PP (polipropilen) bo'lib unga kam miqdorda Masterbatch va boshqa polimerlar qo'shiladi.

2. Ekstruder granuladan qop to'qish uchun ip holiga keltirib beruvchi qism sanaladi. Ekstruder-ishlab chiqarishda asosiy ahamiyat kasb etuvchi qismlardan biri sanaladi. Ekstruder siz olinadigan to'quv uskunalarning soniga qarab ishlab chiqarish quvvati tanlanadi. Qoplar turiga qarab uning qalinligi va kengligini o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Uskuna polipropilen va yuqori zichlikka ega polietilenni qizitish yo‘li orqali lentalar(iplar) chiqaradi. Bu iplar keyinchalik g‘altakka o‘rab beruvchi uskuna tomon yo‘l oladi. Uskuna 100% qayta ishlangan PP(polipropilen) va PE(polietilen), kukun yoki granula shaklidagi PP va yuqori zichlikdagi PE larni xom-ashyo sifatida foydalana oladi. Ekstruder shnegi va silindri 38CrMoA1A qotishma po‘latidan yasalgan. Agar uskunaga azot bilan ishlov berilsa, uning mustahkamligi yanada oshadi. Uskuna roliklari qattiq Cr(xrom) moddasi bilan qoplangan.

3. Bu qismda tayyor iplar maxsus g‘altaklarga o‘raladi. O‘rash jarayoni kompyuterlashtirilgan tizim orqali nazorat qilinadi. Bu qism ham nechta dona to‘quv uskunasi olinishiga qarab g‘altakka o‘rab berish qism hajmi tanlanadi.

Ushbu uskuna so‘nggi texnologiyalar yordamida energiya-tejamkorlikni oshirish uchun 2,2/3 kw motor bilan jihozlangan. Uskunadagi qismlar oson almashtiriladi, shu tufayli ham ehtiyot qismlar kamroq eskiradi, barqaror harakatlanadi va tekis o‘raladi.

4. TK-3/900CP siz ishlab chiqaradigan mahsulot diametri va uning zichligiga qarab turlicha bo‘ladi. Bizda keng foydalaniladigan qoplar uchun to‘quv uskunalari 4G va 6G modellar hisoblanadi. Agar siz Big bag ya‘ni 1 tonnalik mahsulotlar uchun mo‘njallangan qoplar chiqarish niyatida bo‘lsangiz, u holda sizga 10G-12G modellar tog‘ri keladi. Qoplar diametrini o‘zgartirish uchun siz maxsus silindr uchun qoliplar qo‘shib olishingiz lozim.

Eski modellar bilan solishtirib ko‘radigan bo‘lsak, bu uskuna ko‘proq va yaxshiroq qulayliklarga ega. Misol uchun, uskunaning ishlash prinsipi osonroq va barqaror, maxsus moy kerak bo‘lmaydi, 82 DB(detsibel)dan kamroq tovush chiqaradi[2].



1-rasm. Qop ishlab chiqaruvchi TK-3/900CP uskunasi

5. Qoplarni kesib berish va tikish. Qoplarni qo‘l mehnati yordamida kesib ularni ostki qismini tikish ko‘p ishchi kuchi va mehnat talab qiladigan jarayondir. Shu sababli ushbu qismni avtomatik uskunalarga ishonib topshirish maqsadga muvofiq.

6. Tayyor qoplar mijozga yetkazish davomida transport xarajatlarini minimallashtirish uchun ular 60T kuch bilan presslanadi. Ushbu qadoqlash jarayoni birmuncha sodda ish bo‘lib unga alohida malakali kadrlar talab etilmaydi.

Qop ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, qo‘l mehnatini kamaytirish ishni samaradorligi va ishlab chiqarish tezligini yaxshilaydi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki avtomat qurilmalar inson hayotida katta ahamiyat kasb etadi. Avtomat korxonalarini tashkil etish, yurutish, uskunalar va modellashtirish bugungi kunimizda eng dolzarb muommolardan biri sanaladi.

Texnologik jarayonlarni nazorat qilish va avtomatlashtirish faqat ishlab chiqarish texnikasini takomillashtirish hamda mehnat sharoitlarini yaxshilash bilangina emas, balki ishlab chiqarish rentabelligini oshirish, birlik mahsulotga ketadigan moddiy va mehnat xarajatlarini pasaytirib, uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini orttirish bilan bog‘liq[3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupbekov N.R, Igamberdiyev X.Z., Malikov A. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish asoslari. – T.:ToshDTU, 2007.
2. Yusupbekov N.R, Muhamedov B.I, G‘ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. Texnika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “O‘qituvchi”, 1997.
3. Ланшенков Г.И., Полоский Л.М. Автоматизация производственных процессов в химической промышленности. – М.:”Химия”, 1991

XONA CHIROG‘INI ONLAYN YOQIB O‘CHIRISH ILOVASINI YARATISH

Sadullayev Sherzod Xushnudbekovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali talabasi

Yusupova Janar Kamolovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali asistenti

yusupovajanar1992@gmail.com

***Annotasiya:** Xona chiroqlarini onlayn yoqish va o‘chirib qo‘yish xonadagi yoritishni smartfon, planshet yoki kompyuter kabi Internetga ulangan qurilmadan foydalanib masofadan boshqarish qobiliyatini anglatadi. Ushbu texnologiya uying Wi-Fi tarmog‘iga ulanib, mobil ilova yoki ovoz yordamchisi orqali boshqariladigan aqlli lampochkalar, aqlli pluglar yoki kalitlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ushbu texnologiyaning afzalliklaridan biri qulaylikdir. Foydalanuvchilar yorug‘likni yoqish va o‘chirib qo‘yishlari mumkin, bu esa ayniqsa harakatlanish muammolari bo‘lgan odamlar uchun foydali bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, foydalanuvchilar uylarida yo‘qligida yorug‘likni boshqarishga imkon beradi, bu xavfsizlikni va energiya samaradorligini oshiradi.*

***Kalit so‘zlar:** Aqlli yoritish texnologiyasi, aqilli uylar, veb ilova.*

So‘nggi yillarda aqlli yoritish texnologiyasi jadal rivojlandi va hozirda bozorda turli xil aqlli lampochkalar va yoritish tizimlari mavjud. Ushbu tizimlarning ba‘zilari hatto smartfonimizda mavjud bo‘lgan ilovalar orqali boshqariladi, bu esa dunyodagi har qanday joydan chiroqlarni yoqish va o‘chirish imkonini beradi. Aqlli yoritish qulaylik va energiya tejashdan tashqari, uyimizda turli xil kayfiyat va muhitni yaratishda ham ishlatilish mumkin[1].

Xonaning yorug'ligini onlayn yoqish va o'chirishning afzalliklari ko'p. Birinchidan, bu qulaylik beradi, chunki siz xonada bo'lmasangiz ham yorug'likni boshqarishingiz mumkin. Bu shuni anglatadiki, yorug'likni o'chirish uchun qulay joyingizdan turishingiz shart emas. Bundan tashqari, uyda bo'lmaganingizda ham chiroqni yoritib, kimdir uyda bo'lgani kabi ko'rinishga keltirishingiz mumkin. Yana bir afzalligi shundaki, u energiyani tejaydi va elektr to'lovini kamaytiradi. Yorug'likni masofadan turib o'chirib qo'yish qobiliyati bilan siz xonada bo'lmaganingizda yorug'lik keraksiz holda yoqilmasligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Bundan tashqari, yorug'likni aniq vaqtlarda yoqish va o'chirishni rejalashtirsangiz, energiyani tejashingiz mumkin. Bundan tashqari, yorug'likni onlayn yoqish va o'chirish harakatlanish muammolari bo'lgan odamlar uchun ham foydali bo'lishi mumkin, chunki ular yorug'lik tugmachasiga jismoniy ravishda erishish qiyin bo'lishi mumkin[2].

Mobil ilova yordamida ular hech qanday jismoniy harakat qilmasdan yorug'likni osonlikcha boshqarishlari mumkin. Biroq, aqlli lampalardan foydalanishning ba'zi kamchiliklari borligini ta'kidlash muhimdir. Birinchidan, ular an'anaviy lampochkalardan qimmatroq bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, ular barqaror Wi-Fi aloqasiga bog'liq, shuning uchun agar sizning Internet aloqangiz sekin yoki ishonchli bo'lmasa, siz yorug'likni boshqarish bilan bog'liq muammolarga duch kelishingiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, xona chiroqlarini onlayn yoqish va o'chirib qo'yish qulaylik, xavfsizlik va energiya tejashga xizmat qiladi. Bu uyingizni modernizatsiya qilish va hayotingizni osonlashtirishning ajoyib usuli, ammo aqlli yoritgichga o'tishdan oldin, uning salbiy tomonlarini ko'rib chiqish muhimdir.

Ba'zi aqlli lampochkalar ranglarini o'zgartirishi mumkin, bu sizga kino kechalari uchun iliq va qulay muhit yaratishga yoki uyda ishlash uchun yorqin va energiyali muhit yaratishga imkon beradi. Aqlli yoritishning yana bir afzalligi shundaki, uni boshqa aqlli uy qurilmalari bilan birlashtirish mumkin. Masalan, siz xonaga kirganingizda avtomatik ravishda yoqadigan yoki chiqib ketganingizda o'chadigan chiroqlarni o'rnatishingiz mumkin. Shuningdek, siz o'zingizning aqlli

yoritish tizimingizni xavfsizlik tizimiga ulashi mumkin, shunda agar buzilish aniqlansa, chiroqlar avtomatik ravishda yoqiladi. Shuningdek, aqlli yoritish texnologiyasi yanada qulay va arzonlashmoqda. Hozirda bozorda an'anaviy lampochkalar bilan raqobatbardosh narxlarda bir nechta variantlar mavjud bo'lib, yorug'lik tizimini yangilashni har qachongidan ham osonlashtiradi.

Umuman olganda, xona yorug'ligini onlayn yoqish va o'chirib qo'yish - bu aqlli uy inqilobining bir tomoni. Texnologiya rivojlanib borar ekan, uylarimizni masofadan boshqarishning yanada qulay va samarali usullarini ko'rishimiz mumkin.

Aqlli yoritish texnologiyasining eng qiziqarli jihatlaridan biri bu ovoz buyruqlari orqali uni boshqarish qobiliyatidir. Bu Amazon Alexa yoki Google Assistant kabi ovoz yordamchilari orqali amalga oshiriladi, ular aqlli yoritish tizimlari bilan birlashtirilishi mumkin va sizga o'zingizning ovozingiz bilan chiroqlaringizni boshqarishga imkon beradi. Masalan, siz "Hey Google, yashash xonasi chiroqlarini yoq" deb aytishingiz mumkin va chiroqlar barmog'ingizni ko'tarmasdan yoqiladi. Bu ayniqsa harakatlanish muammolari yoki nogironligi bo'lgan odamlar uchun foydali, chunki u yorug'likni o'zgaruvchi bilan jismoniy aloqada bo'lmasdan boshqarishni osonlashtiradi. Aqlli yoritish texnologiyasining yana bir afzalligi shundaki, uni jadvalga mos ravishda dasturlash mumkin, bu esa energiyani tejashga yordam beradi. Misol uchun, har kecha o'z-o'zidan o'chadigan chiroqlarni o'rnatishingiz mumkin[3].

Xulosa. Umuman olganda, xonaning yorug'ligini onlayn ravishda yoqish va o'chirish aqlli uy texnologiyasining ko'plab afzalliklaridan biridir. Texnologiya rivojlanib borar ekan, uylarimizni masofadan boshqarishning yanada yangi va qiziqarli usullarini ko'rishni kutishimiz mumkin, shu bilan birga energiyani tejash va yanada qulay yashash muhitini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. "Aqlli uy". Vikipediya, Wikimedia jamgʻarmasi, 19 may 2021, en.wikipedia.org/wiki/Smart_home. "Aqlli yoritish".
2. Philips Hue, [www2.meethue.com/en-us/aqlli yoritish](http://www2.meethue.com/en-us/aqlli-yoritish). "Yorugʻliklarni Amazon Echo yordamida qanday boshqarish mumkin".
3. CNET, 2020 yil 2 dekabr, [www.cnet.com/how-to/how-to-control-your-lights-with-\[amazon\]\(poe://www.poe.com/_api/key_phrase?phrase=amazon&prompt=Tell%20me%20more%20about%20amazon.\)](http://www.cnet.com/how-to/how-to-control-your-lights-with-amazon/) -echo/

METHODS OF USING MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Solexova Shaxnoza

Student of Samarkand state institute of foreign language

Email: akramjonuz664@gmail.com

Supervisor: Senior teacher of SamSIFL **Ibadova N.A.**

***Annotation:** in this article, information about the types of modern technologies and their importance in learning a foreign language is provided. Each person can learn to use the benefits of modern technologies.*

***Key words:** modern technologies, methods, electronic resource, individual section, language system, language proficiency, academic disciplines.*

Modern education, including its foreign language component, creates new challenges, which are reflected in the current-generation Federal State Educational Standard of Higher Education. The presiding idea of the standard is to form and develop universal and executive competences and professional culture of a specialist of the future ready to address provocation and problems using one's acquired knowledge, abilities and skills, professional values and empirical experience. The goal of the research under review may be described as a strive to present a technology of creating electronic teaching materials by liberal arts undergraduate students of teacher coaching institutions. The prime aim of this paper is to contemplate the specifics of generating electronic educational resources to be used in face-to-face and distance FL learning. Goal-oriented interaction of educational process is one of the aspects conducive to enhancing the features of FL teaching. Teaching techniques in cooperation are implemented in the course of the performance of game charges by the

students in the situations of society extended to them. For mastering a language, significant condition is communication in the target language. According to our observations, learning in cooperation is learning in the process of communication of students with each other, and purposeful work in cooperation can expand interest in classes and significantly increase the time of speech practice of each student in the lesson.

Computer training. This is teaching a foreign language using curricula designed for working with a computer. It arose on the ideas of programmed teaching and current days, has a significant impact on all aspects of the educational process in connection with the enormous computerization of secondary and inflated schools, the creation of computer programs for different academic disciplines, including for those studying foreign languages, using the capabilities of the Internet. Nowadays, the following types of computer training programs have become widespread: those devoted to mastering individual sections of the language system, the development of speech skills, control programs assessing the degree of language potentiality, socio-cultural programs introducing the culture of the country of the target language. At the same time, in the programs of recent years, multimedia systems that synthesize sound, video and text have been increasingly used, which allows using all types and means of visualization within the framework of a computer training course with maximum efficiency. Thanks to the use of the EER program, the probabilities of online open-source tasks (creative tasks) are most fully realized. Contemporary technologies are considered an active agent for enhancing the quality of the educational activity and a vital pre-condition for developing modern teacher non-manual competency. All types of training materials (online courses, video lectures, training devices, tests, polls, interactivities) used to build a particular course are concentrated in one ISpring Suite program. A significant feature is the add-in over Microsoft Office (Power Point), which is a time-saver, allowing the consumer not to waste time getting used to the interface. A new modern approach to the application of new technological processes and new modern methods of teaching in the educational process. The purpose of foreign language teaching is not only to educate students and

develop certain, speaking skills, but also to develop students' abilities. development, increasing interest in the foreign language they are learning, using the internal capacity of their memory, and building students' confidence in their own power. As you know, the educational process is complicated. Foreign language lessons include the stages of developing relevant speaking skills and competencies through the presentation of new learning material, its practice through a variety of exercises, and its application to a variety of speech situations. A number of interactive methods can be used to increase student engagement in the classroom. The term correlative method is derived from the English word "interactive", which means to increase students' internal activity. There are a number of types of this method, some of which are currently widely used interactive methods such as "brainstorming", "business games", "pinboard", "cluster", "sinkveyn", "cubic technology", role-playing games are aimed at increasing the activity of students in the educational process. In interactive teaching, group teaching, small groups of 3-5 people are effective. So that, it can be called "Innovative technology". Innovative technologies are ways to develop the acquisition of knowledge through the operate of factors that increase the effectiveness of education, the design and implementation of different pedagogical processes. Its main purpose is to make innovations and swap in the activities of teachers and students in the educational summons which requires the use of interactive methods. Interactive methods are based on the active, free and independent thinking of each learner involved in the learning process. When using these methods, learning becomes a fun activity.

In conclusion, learning a foreign language using computer programs and other modern technologies can be more effective and motivating. These modern technologies also help the development of types of that writing, speaking, listening and reading. This can lead to excellent results in English language learning.

References:

1. Bakirova H.B. Formation of terminological competence in ESP education. Novateur publications. Journal NX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, ISSN No: 2581 4230 VOLUME 6, ISSUE 11, India. -2020. P 63.
2. Kitaygorodskaya G.A. Methodology for intensive teaching of foreign languages. M., 1982.
3. Klarin M.V. Pedagogical technology in the educational process: Analysis of foreign experience. M., 1989
4. Rozhkova F. M. Questions of teaching foreign languages in secondary vocational schools. - M.: Higher school, 1984. pp. 9-12.
5. Pedagogical practice of IV-V full-time courses' students: Methodological development for group leaders. / Ans. ed. D. D. Jalalov. - T.: TSII, 1977.
6. The program of the course "Methods of teaching foreign languages. / Ed. D. D. Jalalova. (rotaprint). - T.: TGPII, 1982. pp.17
7. Larsen - Freyen, Dian. Methods and principles of language teaching. Oxford University Press, USA: 2000.
8. Zhukova O. Teaching English vocabulary to children with special learning difficulties.
9. . Lindquist H. Corpus Linguistics and the Description of English. – Edinburg: Edinburg University Press LTD, 2009
10. Ismatullayeva Nargiza Rasuljanovna. Lacunas Occurance in Semantic Fields of Chinese and Uzbek Languages. International Journal of Scientific & Technology Research. Volume 8, issue 11, November 2019. pp. 1998-2001
11. Ibadova N.A."Modern method of teaching Adolescents a second Language" American Journal of Social and Humanitarian Research. 25 January 2022, 189-192p

TARBIYA DARSLARI JARAYONIDA BAHOUDDIN NAQSHBAND TA'LIMiy-AXLOQiy QARASHLARIDAN FOYDALANISH

Nurmamatova Shodiya Beshimovna

shodiyanur@gmail.com

BuxDU pedagogik ta'lim fakulteti
14-11BTU -19 guruhi talabasi

Ilmiy rahbar:

f.f.f.d.dotsent **M.Y.Ro'ziyeva**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada siz Bahouddin Naqshbandning tarbiyaviy va axloqiy qarashlarini tarbiya darslarida qo'llagan holda o'quvchilar uchun ta'lim qanchalik muhim va dolzarb ekanligi hamda bu jarayon qanday olib borilishi haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.*

***Kalit so'zlar:** o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona, bola, ilm, talim-tarbiya, maktab.*

***Аннотация:** В этой статье вы узнаете, насколько важно и актуально образование для учащихся и как осуществляется этот процесс, применяя воспитательные и нравственные взгляды Бахауддина Накиббанда на учебных занятиях.*

***Ключевые слова:** учитель, ученик, родитель, ребенок, наука, образование, школа.*

***Annotation:** In this article, you will get information about how important and relevant education is for students and how this process is carried out, applying Bahauddin Naqshband's educational and moral views in education classes.*

***Key words:** teacher, pupil, parent, child, science, education, school.*

“Tarbiya” darsliklarida Bahouddin Naqshband ta’limiy-axloqiy merosidan foydalanishdan ko‘zlangan maqsad – o‘quvchilar tomonidan egallangan Bahouddin Naqshband hayoti va ta’limiy-axloqiy qarashlari borasidagi nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularni amaliy faoliyatga tadbiq etish, o‘quvchilar tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat, hatti-harakatlarning ma’naviy-axloqiy mazmun kasb etishiga erishish, bu borada dastlabki ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ushbu sifatlarni yanada boyitish va doimiy sur’atda rivojlantirib borishdan iboratdir.

Sinfdan tashqari sharoitda uyushtiriluvchi tarbiyaviy ishlar jarayonida Bahouddin Naqshbandning ta’limiy-axloqiy qarashlaridan foydalanish quyidagi tarbiyaviy ishlar shaklida tashkil etish mumkin: ma’ruza, seminar, suhbat, ifodali o‘qish, matbuot konferensiyasi, o‘quvchilarning nazariy anjumanlari, bahs, sayohat va boshqalar.

O‘quvchilar Bahouddin Naqshbandning ta’limiy-axloqiy qarashlarini o‘rganishi va ularni barkamol inson sifatida tarbiyalashda guruhlar bilan o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlar ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u dars jarayonida olgan bilimlarni mustahkamlash, to‘ldirishga xizmat qiladi. Bu guruhdagi tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilarning qiziqishlariga ko‘ra uyushtiriladi. Ommaviy tadbirlardan farqli tarzda mag‘lub va g‘olib aniqlanadi, tarbiyaviy tadbir jarayonida har bir o‘quvchining ma’naviy qiziqishi, qobiliyati, saviyasi, tarbiyalanganlik darajasi, alloma merosiga munosabati namoyon bo‘ladi, o‘quvchi qobiliyatini rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi: tarbiyaviy tadbir o‘tkazishda reja, dastur asos bo‘lib xizmat qiladi, natijani yakunlash va baholash faol kechadi.

Guruhlar asosida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar jarayonida o‘quvchilarning ma’naviyatini shakllantirish bilim, nazariy, amaliy, ijodiy, ijtimoiy-ma’naviy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Umumiy O‘rta ta’lim maktablarida “Odobnoma”, “O‘qish”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” fani to‘garagi rejasiga Bahouddin Naqshband merosini kengroq o‘rganishga yordam beradigan ilmiy asarlarni o‘qib-o‘rganish

vazifasi ham kiritiladi. Shu bilan birga mazkur to‘garak rejasini tuzishda o‘quvchilar jamoasining xohish-istaklari, yosh xususiyati hisobga olinadi. To‘garakda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar rejasining har taraflama o‘ylanib tuzilishi to‘garak a‘zolarining faoliyatini oshirishga yordam beradi. «Oltin meros» to‘garagining ish uslubi quyidagicha bo‘lishi mumkin: Bahouddin Naqshband merosidagi ayrim pand-nasihatlarini ifodali o‘qish, ayrimlarining tahlili ustida ishlash, alloma ta‘limoti yuzasidan ma‘ruzalar tayyorlash va uni muhokama qilish, ayrimlari yuzasidan kitobxonlar anjumani o‘tkazish va boshqalar.

Shuningdek, adabiy to‘garaklarda mutafakkirning «Diling – Allohda, qo‘ling mehnatda bo‘lsin» shiorini o‘rganish o‘quvchilarni mehnatsevar bo‘lishga, ularda hurfikrlilik, insonparvarlik, ma‘rifatparvarlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik hissini tarbiyalashga, nafosatlilik g‘oyalarini o‘stirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Bundan tashqari dramatik to‘garaklarda Bahouddin Naqshband hayoti va ta‘limoti haqidagi rivoyatlardan kichik sahna epizodlar tayyorlash ham mumkin.

O‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati o‘quvchi kundalik hayotining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu tadbirlarda ishtirok etish natijasida o‘quvchi, birinchidan, o‘quv ishining davomi sifatida turli mavzudagi ma‘ruzalar, suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, o‘z bilim va ma‘naviy saviyasini boyitib boradi.

Bahouddin Naqshbandning ta‘limiy-axloqiy qarashlari vositasida o‘smirlarni ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashni ko‘zda tutgan tarbiyaviy tadbirlarga umumiy O‘rta ta‘lim maktabi tarbiyaviy ishlarining tarkibiy qismi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, o‘quvchilarni tarbiyaviy tadbirlar jarayonida Bahouddin Naqshband ta‘limiy-axloqiy qarashlaridan foydalanish orqali ularda insoniylik fazilatlarini shakllantirish, asosan, maktabning mavjud imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda uyushtiriladi.

To‘rtinchidan, Bahouddin Naqshbandning ta‘limiy-axloqiy qarashlaridagi odob, axloqiy fazilatlar va ta‘limiy qarshlarni o‘rganish, qsmirlarni tarbiyalashga bag‘ishlangan tarbiyaviy tadbirlarning mazmuniga o‘rganiladigan davr ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy hayoti mohiyati singdiriladi.

Bahouddin Naqshbandning ta‘limiy-axloqiy merosidan tarbiyaviy jarayonda foydalanishga yo‘naltirilgan tadbirlar o‘quv faoliyatning uzviy davomi hisoblanib, ular o‘quvchilar tomonidan egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularda ma‘naviy-axloqiy mazmundagi amaliy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonidagi tadbirlarning aniq maqsad va puxta asoslangan vazifalarni hal etishga yo‘naltirilishi o‘quvchilarda Bahouddin Naqshband ta‘limiy-axloqiy g‘oyalari asosida muayyan ma‘naviy-axloqiy kamolotni ta‘minlaydi. Bahouddin Naqshband ta‘limotidan darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar o‘quv faoliyatning uzviy davomi bo‘lib, ular o‘quvchilar tomonidan egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularda ma‘naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ular tomonidan ma‘naviy-axloqiy mazmundagi amaliy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sonli Qarori.
2. Ro‘ziyeva d va boshq . Tarbiya. Darslik. T., “Sano –standart”. 2020. 95 b.

O‘ZBEK FOLKLORI VA XALQARO FOLKLORISTIKA: JANR VA IFODA MUSHTARAKLIGI

Karimova Maxsuda Yusupboyevna

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi

Urganch shahar 1-son maktab-internatining, oliy toifali ona tili va adabiyoti fani

o‘qituvchisi, Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ANNOTATSIYA

Har bir xalq madaniyati va adabiyotining boshlangich «alifbo»si folklordir. Folklor xalq donishmandligi ifodasi sifatida xalqlar va umumjahon miqyosida insoniylik tamoyillarining shakllanishi, ravnaq topishida hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Maqolada o‘zbek folklorshunosligi, xususan, Xorazm folklorshunoslik maktabining yaratilishi, taraqqiyotida folklorshunos olim, professor Safarboy Ro‘zimboyevning ilmiy tadqiqotlari, soha rivojiga qo‘shgan hissasi haqida fikr yuritiladi.

Olimning folkloristik tadqiqotlari hamda uning rahbarligida folklor manbalarini yozib olish va to‘plash, manbalarni ilmiy jihatdan tahlil qilinishi borasidagi ijobiy va ijodiy ma’lumotlar bazasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

O‘zbek folklorshunos olimi Safarboy Ro‘zimboyevning Xorazm folkloriga oid izlanishlari turkiy xalqlar o‘rtasida keng miqyosda o‘rganilayotganligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Folklor namunalarini noyob nomoddiy madaniy meros sifatida asrash lozimligini bayon qilgan.

Professor S. Ro‘zimboyevning ilmiy maqolalari tahlil qilinib, xalq baxshilari va folklor namunalari millatlarni birodarlikka undovchi ma’naviy qudrat ekanligi, xalqlarni ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *Folklor – ilm-fan va madaniyat alifbosi, O‘zbek folklorshunosligi, Xorazm folklori, Xorazm dostonlari, folklorshunoslik maktabining yaratilishi, professor Safarboy Ro‘zimboyevning ilmiy tadqiqotlari, nomoddiy madaniy meros, xalq baxshilari, "Oshiqnoma", "Go‘ro‘g‘li" eposlari, xalq baxshilari, urf-odat va an’analar axloqiy- ma’naviy tarbiya, xalfalar,*

ANNOTATION

The initial "alphabet" of every national culture and literature is folklore. Folklore, as an expression of folk wisdom, played a decisive role in the formation and development of the principles of humanity on a global scale.

The article discusses the scientific research and contribution to the development of Uzbek folklore studies, especially the creation and development of the Khorezm School of Folklore Studies, by professor Safarboy Rozimboyev, a folklorist scientist. Information about the positive and creative database of the scientist's folkloristic research and the recording and collection of folklore sources, scientific analysis of sources under his leadership is given.

It is reported that the researches of the Uzbek folklorist Safarboy Rozimboyev on Khorezm folklore are widely studied among the Turkic peoples.

He stated that folklore samples should be preserved as unique intangible cultural heritage.

The scientific articles of Professor S. Rozimboyev were analyzed, and it was shown that folk traditions and folklore examples are a spiritual power that encourages nations to brotherhood.

Keywords: *Khorezm epics, bakhshi and halfas, recitation-short story halfas, "Ashiqnoma" series, scientific researches of professor Safarboy Rozimboyev, especially the creation and development, Khorezm School of Folklore Studies, a folklorist scientist, Khorezm folklore are widely studied among the Turkic peoples, brotherhood.*

АННОТАЦИЯ

И сходным «алфавитом» каждой национальной культуры и литературы является фольклор. Фольклор, как выражение народной мудрости, сыграл решающую роль в формировании и развитии принципов гуманности в мировом масштабе.

В статье рассматриваются научные исследования и вклад в развитие узбекского фольклориста, особенно создание и развитие Хорезмской школы фольклористики профессора Сафарбоя Розимбоева, ученого-фольклориста.

Приводится информация о положительной и творческой базе фольклорных исследований ученого и о записи и сборе фольклорных источников, научном анализе источников под его руководством.

Сообщается, что среди тюркских народов широко изучаются исследования узбекского фольклориста Сафарбоя Розимбоева по хорезмийскому фольклору.

Он заявил, что образцы фольклора должны быть сохранены как уникальное нематериальное культурное наследие.

Ключевые слова: Первая фольклорная экспедиция учёного, поэма "Gurugli", Хорезмские дастаны, цикл "Ошикнома" ("Поэма о влюбленных"), научные исследования проф.С.Рузимбаева.

Folklor — bu har bir xalq madaniyati va adabiyotining boshlangich «alifbo»si boʻlib, u ana shularning shakllanishi, ravnaq topishida hal qiluvchi rol oʻynagan. Ularning tarkibiga uzviy ravishda singib, badiiy jozibadorligini oshirish bilan birga, xalqlarning madaniy hayotida ham muhim oʻrin tutadi. Binobarin, uni chuqur va atroflicha oʻrganmay turib, u yoki bu xalqning milliy madaniyati, adabiyoti ijtimoiy borlivda bulgan munosabati haqida ham turli tasavvurga ega boʻlish amri maholdir.

